

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
THE DEPARTMENT OF "REAL ECONOMICS"
OF THE SAMARKAND INSTITUTE OF ECONOMICS AND SERVICE

DEPARTMENT OF ECONOMICS OF THE HIGHER SCHOOL OF ECONOMICS AND BUSINESS
OF AL-FARABI KAZAKH NATIONAL UNIVERSITY

INTERNATIONAL UNIVERSITY OF INNOVATION TECHNOLOGIES

March 27, 2026

1-INTERNATIONAL EDUCATIONAL-METHODICAL CONFERENCE ON THE TOPIC "MODERN TRENDS AND INNOVATIVE APPROACHES TO ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION OF EDUCATION"

PUBLISHING HOUSE "TURON NASHR"
SAMARKAND – 2026

UO‘K: 37.014.5:004(06)
KBK: 74.00ya43
T 49

1-international educational-methodical conference on the topic “Modern trends and innovative approaches to organizing the educational process in the context of digital transformation of education” [Text] / editor [T.S. Sharipov and oth.] ; compiler Sh.N. Mirzayeva.- Samarqand: TURON NASHR (Mirzo Abdullo nur savdo), 2026.- 468 p.

Responsible for the publication:

Sharipov Tolqin Saidahmedovich – Professor of the Department of “Real Economics” of the Samarkand Institute of Economics and Service;

Shodiyeva Gulnora Mardiyevna – Professor of the Department of “Real Economics” of the Samarkand Institute of Economics and Service;

Artikov Zokir Sayfiddinovich – Head of the Department of “Real Economics” of the Samarkand Institute of Economics and Service, PhD, Professor;

Kurbanova Rakhima Jamshedovna – PhD, Associate Professor of the Department of “Real Economics” of the Samarkand Institute of Economics and Service;

Abdullayeva Zulfiya Izzatovna – PhD, Associate Professor of the Department of “Real Economics” of the Samarkand Institute of Economics and Service;

Sattarova Zukhra Ilhamovna – Associate Professor of the Department of “Real Economics” of the Samarkand Institute of Economics and Service;

Ruziyeva Nigina Baxtiyarovna – PhD, Associate Professor of the Department of “Real Economics” of the Samarkand Institute of Economics and Service;

Mirzayeva Shirin Nodirovna – Assistant of the Department of “Real Economics” of the Samarkand Institute of Economics and Service;

Saule Yessengaziyeva – Candidate of Economic Sciences, Associate Professor, Deputy Head of the Department of Economics, Higher School of Economics and Business, Al-Farabi Kazakh National University;

Yermekova Zhanna – Dean of Higher School of Economics and Business, Al-Farabi Kazakh National University;

Nurgazy Shyngys – Deputy Dean of Higher School of Economics and Business, Al-Farabi Kazakh National University;

Galiya Dauliyeva – Head of the Department of Economics, Higher School of Economics and Business, Al-Farabi Kazakh National University ;

Gulmira Andabayeva – Candidate of Economic Sciences, Professor of the Department of Economics of the Higher School of Economics and Business of the Al-Farabi Kazakh National University;

Biken Nurmanova – Senior Lecturer, Department of Economics, Higher School of Economics and Business, Al-Farabi Kazakh National University;

Symbat Abilda – Deputy Head of the Department of Economics, Higher School of Economics and Business, Al-Farabi Kazakh National University;

Baymirsaeva Erkegul Munduzbekovna – International University of Innovation Technologies, Doctor of Economic Sciences, Professor;

Gornostaeva Janna Viktorovna – Head of the Department of Management and Entrepreneurship, PhD in Economics, Professor, Don State Technical University.

Pagers:

Sh.N.Mirzayeva – Assistant of the Department of "Real Economics", SamISI;
J.R.Allanazarov – 1st year student of the Faculty of Economics, SamISI.

This collection of abstracts of the International Educational and Methodological Conference entitled "Modern Trends and Innovative Approaches to Organizing the Educational Process in the Context of Digital Transformation of Education" brings together the results of scientific research, methodological developments, and practical experiences of scholars, educators, researchers, doctoral students, and specialists from different countries.

The proceedings cover current issues related to the digital transformation of education, innovative pedagogical technologies, modernization of educational processes, development of e-learning and distance education, implementation of artificial intelligence, digital platforms, and modern information and communication technologies in educational activities. Particular attention is paid to the development of digital competencies among students and educators, modernization of educational content, application of interactive teaching methods, improvement of educational quality, and promotion of sustainable development in educational systems under conditions of global digitalization.

The volume includes theoretical and applied research in the fields of digital pedagogy, educational management, inclusive education, educational analytics, academic mobility, international cooperation, and emerging educational technologies. The contributions examine contemporary approaches to educational governance, digital learning environments, and innovation-driven educational infrastructure.

The materials presented in this collection reflect current trends in educational development and facilitate the exchange of advanced knowledge and best practices among the international academic and pedagogical community. The proceedings are intended for researchers, university faculty members, doctoral candidates, graduate students, education professionals, and all those interested in the digital transformation and innovative development of education.

Настоящий сборник тезисов Международной научно-методической конференции «Modern Trends and Innovative Approaches to Organizing the Educational Process in the Context of Digital Transformation of Education» объединяет результаты научных исследований, методических разработок и практического опыта ученых, преподавателей, исследователей, докторантов и специалистов в области образования из различных стран мира.

Материалы сборника посвящены актуальным вопросам цифровой трансформации образования, внедрения инновационных педагогических технологий, совершенствования организации образовательного процесса, развития электронного и дистанционного обучения, применения искусственного интеллекта, цифровых платформ и современных информационно-коммуникационных технологий в образовательной деятельности. Особое внимание уделено проблемам формирования цифровых компетенций обучающихся и педагогов, модернизации содержания образования, внедрению интерактивных методов обучения, повышению

качества образовательных услуг и обеспечению устойчивого развития образовательных систем в условиях глобальной цифровизации.

В сборнике представлены результаты фундаментальных и прикладных исследований по вопросам цифровой педагогики, образовательного менеджмента, инклюзивного образования, образовательной аналитики, академической мобильности, международного сотрудничества, а также перспективных направлений развития образовательных технологий. Рассматриваются современные подходы к управлению образовательными организациями, формированию цифровой образовательной среды и развитию инновационной инфраструктуры образовательных учреждений.

Представленные материалы отражают современные тенденции развития образования и способствуют обмену передовым опытом между научным и педагогическим сообществом. Сборник предназначен для ученых, преподавателей высших учебных заведений, докторантов, аспирантов, магистрантов, специалистов системы образования, а также всех исследователей, интересующихся вопросами цифровой трансформации и инновационного развития образования.

“Ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-uslubiy konferensiya tezislar to‘plami dunyoning turli mamlakatlaridan olimlar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, doktorantlar hamda ta’lim sohasi mutaxassislarining ilmiy tadqiqotlari, uslubiy ishlanmalari va amaliy tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan.

To‘plamda ta’limning raqamli transformatsiyasi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta’lim jarayonini takomillashtirish, elektron va masofaviy ta’limni rivojlantirish, sun’iy intellekt, raqamli platformalar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar jamlangan. Shuningdek, ta’lim oluvchilar va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, interaktiv o‘qitish usullarini keng qo‘llash, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash masalalari keng yoritilgan.

Mazkur tezislar to‘plamida raqamli pedagogika, ta’lim menejmenti, inklyuziv ta’lim, ta’lim analitikasi, akademik mobillik, xalqaro hamkorlik va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid fundamental hamda amaliy tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Materiallar ta’lim muassasalarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish masalalarini qamrab oladi.

To‘plam materiallari xalqaro ilmiy-pedagogik hamjamiyat o‘rtasida ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Nashr olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar, ta’lim sohasi mutaxassislari hamda ta’limning raqamli transformatsiyasi va innovatsion rivojlanishi masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

ISBN: 978-9910-5219-8-0

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026-y.
© Publishing house “TURON NASHR”, 2026-y.

5. Grossman, G. M., & Krueger, A. B. (1991). Environmental Impacts of a North American Free Trade Agreement. NBER Working Paper No. 3914. https://doi.org/10.3386/w3914

6. Daly, H. E., & Farley, J. (2004). Ecological Economics: Principles and Applications. Washington D.C.: Island Press.

7. Adebayo, T. S. et al. (2023). Renewable energy consumption and economic growth nexus in G7 countries. Energy Reports, 9, 1419–1430. https://doi.org/10.1016/j.egyr.2022.12.088

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLAR

Artikov Zokir Sayfiddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Real iqtisodiyot kafedrasi mudiri, prof
E-mail: ***zokirartikov86@gmail.com***
Ergasheva Shaxzoda Bahromovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
E-mail: ***shahzodaergasheva.0112@gmail.com***

Annotatsiya: O‘zbekiston Mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiyotni rivojlantirish uchun export va importni amalga oshirishga katta e’tibor qaratdi. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining exportini oshirishning yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar, siyosatlar va amaliy choralari hamda eksportni qo‘llab-quvvatlashda davlatning roli taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston exporti rivojlanishi, export salohiyati, strategiyalari, amaliy choralari.

Har qanday mamlakat jahon xo‘jaligiga kirib borish, iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan tovar va xizmatlarni eksport qilib, ichki iste’moli uchun zarur, yetarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lmagan tovar va xizmatlarni import qilish orqali xalqaro savdo aloqalarida ishtirok etadi. Shuningdek, exportni ko‘paytirish uchun “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-songa muvofiq hukumat komissiyasiga eksport qilinadigan mahsulotlar uchun transport xarajatlarining bir qismini davlat budjeti hisobidan qoplash (subsidiyalar berish) vakolati berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri eksport salohiyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasida 1991–2026 yillar davomida eksport hajmining o‘sishi kompleks iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o‘zgarishlar va tashqi savdo siyosatining liberallashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur davrda eksport nafaqat miqdoriy jihatdan, balki sifat va tarkibiy jihatdan ham sezilarli o‘zgarishlarga uchradi.

1990-yillarda mamlakat eksporti asosan xomashyo yo‘nalishida bo‘lib, 1995 yilga kelib umumiy eksport hajmi 3–4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu davrda paxta tolasi eksportning qariyb 60–70 foizini egallagan bo‘lsa, tayyor mahsulotlar ulushi atigi 10–15 foizni tashkil etdi. Bu holat eksportning past darajada diversifikatsiyalanganini ko‘rsatadi.

2000–2010 yillar oralig‘ida eksport hajmi 5 milliard dollardan 13–14 milliard dollarga yetib, qariyb 2,5–3 barobar (150–180 foizga) oshdi. Ushbu o‘sishning asosiy sababi sifatida sanoatni rivojlantirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish siyosatini ko‘rsatish mumkin. Xususan, tekstil sanoatining rivojlanishi natijasida paxta tolasi eksporti ulushi 60 foizdan 30–35 foizgacha, ya’ni qariyb 25–30 foiz punktga kamaydi, shu bilan birga tayyor tekstil mahsulotlari eksporti ulushi 2 barobardan ko‘proqqa oshdi. Bu o‘zgarishlar qo‘shilgan qiymatning ortishi hisobiga eksport tushumlarining sezilarli ko‘payishiga olib keldi.

2017–2019 yillar davomida eksport hajmi 12,5 milliard dollardan 18 milliard dollarga yetib, qariyb 40–45 foizga oshdi. Ushbu keskin o‘sish, avvalo, valyuta siyosatining liberallashuvi bilan izohlanadi. Xususan, valyuta bozorining erkinlashtirilishi natijasida eksport qiluvchilar uchun daromadlarni erkin tasarruf etish imkoniyati yaratildi, bu esa eksport hajmining kengayishiga olib keldi. Shu bilan birga, bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi eksport xarajatlarini kamaytirib, tashqi savdo operatsiyalarini tezlashtirdi.

2020–2024 yillar oralig‘ida eksport hajmi 19 milliard dollardan 25 milliard dollargacha yetib, 30 foizdan ortiq o‘sish qayd etildi. Ushbu davrda eksportning o‘sishiga bir necha omillar ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, davlat tomonidan eksport qiluvchilarga ajratilgan subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qildi. Natijada kichik va o‘rta biznes subyektlarining eksportdagi ulushi 2017 yildagi 20 foizdan 2023 yilga kelib 35–40 foizgacha oshib, qariyb 15–20 foiz punktga ko‘paydi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti ham sezilarli darajada oshdi. Meva-sabzavot eksporti 2010 yildagi taxminan 0,5–0,7 milliard dollardan 2023 yilga kelib 1,5–2 milliard dollarga yetib, qariyb 2,5–3 barobar (150–200 foizga) oshdi. Ushbu o‘sishning asosiy sababi sifatida qishloq xo‘jaligida klaster tizimining joriy etilishi, mahsulotlarni qayta ishlash darajasining oshirilishi va yangi eksport bozorlarining o‘zlashtirilishini ko‘rsatish mumkin.

Eksport geografiyasining kengayishi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Agar 1990-yillarda eksportning 60 foizdan ortig‘i MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning ulushi 30–35 foizgacha kamaydi, ya’ni qariyb 25–30 foiz punktga qisqardi. Bu esa Osiyo va Yevropa bozorlariga chiqish hisobiga eksportning diversifikatsiyalashganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 1995–2024 yillar davomida O‘zbekiston eksport hajmi 3–4 milliard dollardan 25 milliard dollargacha yetib, 6–7 barobar (500–600 foizga) oshdi. Ushbu o‘sish tarkibiy islohotlar, iqtisodiy liberallashuv, davlat qo‘llab-quvvatlovi va tashqi savdo geografiyasining kengayishi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda eksport 1990-yillardan boshlab sezilarli darajada o‘sdi va tarkiban o‘zgardi. Dastlab eksport asosan xomashyo (ayniqsa paxta)ga tayanib kelgan bo‘lsa, keyinchalik sanoatni rivojlantirish, qayta ishlashni kengaytirish va iqtisodiy islohotlar natijasida tayyor mahsulotlar ulushi oshdi. Davlat tomonidan eksportni qo‘llab-quvvatlash (subsidiyalar, imtiyozlar), valyuta bozorini erkinlashtirish va tashqi savdo sharoitlarini soddalashtirish eksport hajmining tez o‘sishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, kichik biznes va qishloq xo‘jaligi eksportdagi ulushi ortdi, eksport geografiyasi kengayib, yangi bozorlar o‘zlashtirildi. Natijada 1995–2024 yillarda eksport hajmi bir necha barobar oshib, yanada diversifikatsiyalashgan va samarali tizimga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son qarori.

2. Артиков З. С. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2022. – №. 4 (152). – С. 59-65.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2023. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi. Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi.

4. Tursunov, B., 2022. Export potential of Uzbekistan's agriculture, textile, and chemical industries: Opportunities and challenges. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(4), pp.108-119.

5. Набиев Э., Қаюмов А. “Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти”. «Академия», Тошкент, 2000 й.

6. Раҳмонов Р.Н. “Фарғона минтақаси экспорт салоҳиятидан оқилона фойдаланиш ва уни такомиллаштириш йўллари” мавзусидаги автореферати. Тошкент: ТМИ, 2012 йил. - 23 бет.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA IQTISODIY FANLARNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Real iqtisodiyot” kafedrasi, kata o‘qituvchisi, PhD
Email: *erdonovmuhammad@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur tezisda kredit-modul tizimining iqtisodiy fanlarni o‘qitishdagi didaktik va pedagogik asoslari, uning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi ustunliklari hamda talaba markazli yondashuvni kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Modul asosida tuzilgan iqtisodiy fanlar mazmunining izchilligi, mustaqil ta’lim ulushining ortishi, baholashning shaffofligi va o‘quv yuklamasining maqbullashuvi kabi jihatlar yoritilgan. Shuningdek, kredit-modul tizimining bo‘lajak